



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING ROLI

U.N.Nusratova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15341813>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 28-Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 30-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Ekologik madaniyat, boshlang'ich ta'lim, integrativ yondashuv, ekologik tarbiya, fanlararo integratsiya, ekologik ong, barqaror rivojlanish

ABSTRACT

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda integrativ yondashuvning o'rnini tahlil qilinadi. Ta'lim jarayoniga atrof-muhitni muhofaza qilishga oid bilim, ko'nikma va munosabatlarni integratsiyalash orqali o'quvchilarda ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, fanlararo bog'liqlik asosida tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rgatishning samarali usullari ko'rib chiqiladi. Integrativ yondashuv orqali o'quvchilarning ekologik qadriyatlarini, ijtimoiy faolligi va amaliy faoliyatga tayyorligi mustahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi" to'g'risidagi PF-158 sonli Farmonida respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, respublikamizning aholisini ekologik madaniyatini yanada shakllantirish borasida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ekologik tarbiyalashning samarali tizimini yaratishni taqozo etadi.

Hozirgi zamon ekologik muammolar dunyo miqyosida jiddiy e'tibor talab qilmoqda. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolar insoniyat uchun katta tahdid solmoqda. Bu jarayonda ekologik madaniyatni shakllantirish, ayniqsa, yosh avlodning ongida ekologik qiymatlar va atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyat hissini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ekologik madaniyatni shakllantirishning eng muhim bosqichini tashkil etadi, chunki aynan bu davrda o'quvchilarning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlarini, tabiatga bo'lgan munosabati shakllanadi. Shuning uchun ekologik tarbiya va bilimlarni boshlang'ich sinfdan berish juda muhimdir.

Integrativ yondashuv esa, o'quvchilarning turli fanlar orqali keng qamrovli bilim olishlariga yordam beradigan, o'zaro bog'langan va tizimli metodologiyadir. Bu yondashuv yordamida ekologik madaniyatni shakllantirishda ko'plab fanlar (biologiya, geografiya, adabiyot, san'at va boshqalar) o'zaro integratsiya qilinadi.

Olima **B.S.Abdullaeva** fanlar integratsiyasi va fanlararo aloqadorlikning ta'lim jarayonidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritib, quyidagilarni ta'kidlaydi:

“Bizning davrimiz uchun fanlar integratsiyasi, olamning umumiy holati haqida yanada izchilroq tasavvurga ega bo‘lish odatiy hol. Lekin bunday muammoni bir fan doirasida hal etish mumkin emas. Shuning uchun o‘qitish nazariyasi va amaliyotida o‘quv fanlarini birlashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda, ularni fanlararo aloqadorlik asosida mujassamlashtirish va umumiy mazmunini yaxlit modellarida ifodalash jarayoni davom etmoqda... o‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta‘minlash o‘quvchilarning bilimlarini tizimlashtirishga, ularning mustaqil fikrlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, ta‘limning quyi bosqichlarida egallagan bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi” [1].

Tadqiqotchi **N.J. Isaqulova** esa ta‘lim jarayonida fanlar aloqadorligining ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: ta‘lim jarayonini tashkil etishda optimal yo‘l; dars mavzusiga turli fanlar yondoshadi; darsning qiziqarli tomoni kuchayadi; bir mashg‘ulot davomida o‘zlashtirilgan axborotlarning ko‘lami kengayadi; turli fanlar yuzasidan xulosa chiqarish imkoni shakllanadi; mustaqil fikrlashni amalga oshiradi. Ta‘lim sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlik pedagogik muammo, prinsip, metod, muhim samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi [2].

O‘quvchilarda atrof-muhitga va inson salomatligiga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirishning boshlang‘ich bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich maktab muhim o‘rinni egallaydi. Yosh avlod uni hayotimizning barcha mazmuni va shakllari, ayniqsa maktabning yagona ta‘lim va tarbiya jarayoni sharoitlari bilan amalga oshirishga tayyorlaydi. Ekologik ong va xulq-atvor yoshlarning umumiy madaniyatining ajralmas qismiga aylanganda to‘liq samaraga erishiladi. Ekologik bilimli va ekologik madaniyatli insongina tabiat bilan o‘zaro munosabatdabo‘lganda o‘zining amaliy faoliyati oqibatlarini real baholay oladi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda integrativ yondashuv juda samarali metoddir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik bilimlarni berishda turli fanlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik, ekologik muammolarni yechishda o‘quvchilarning yaratish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv nafaqat ekologik ongni oshirish, balki o‘quvchilarda atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirishda ham samarali hisoblanadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar, ekologik madaniyatni shakllantirishda integrativ yondashuvning ijobiy ta‘sirini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, bu yondashuvning pedagogik jarayonlarga integratsiyasi o‘qituvchilar tomonidan yanada rivojlantirilishi kerak. Ekologik tarbiya nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini oshiradi, balki ularning tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyotkorona munosabatini shakllantiradi, kelajakda esa yanada ekologik ongli jamiyatni yaratishga xizmat qiladi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda integrativ yondashuv — ya‘ni turli fanlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olib, ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish — muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali:

- o‘quvchi olamni yaxlit tasavvur etadi;
- tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni tushunadi;
- ekologik muammolarga befarq bo‘lmagan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxs shakllanadi.

Masalan, ona tili darslarida tabiatga oid matnlarni tahlil qilish, matematika darslarida ekologik mavzudagi misollarni ishlatish, texnologiya darslarida qayta ishlanadigan

materiallardan foydalanish orqali o'quvchiga tabiatga nisbatan hurmat, ehtiyotkorlik, mas'uliyatlilik tuyg'ulari singdiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tarbiya jaryonida o'qituvchilar ekologik madaniyatni shakllantirish uchun turli metodlarni qo'llashlari kerak. Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuv orqali ekologik madaniyatni shakllantirish samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa ekologik xavfsiz hayot tarzini targ'ib qiluvchi, barqaror rivojlanishga hissa qo'shuvchi shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2005. – №1. – B. 12–16.
2. Isaqulova N.J. Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishning nazariyasi va amaliyoti (Umumiy o'rta ta'lim va pedagogika kollejining "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi misolida). Diss. ped. fan. dokt. – Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2012. – 288 b.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi". O'quv qo'llanma.-Toshkent. "Ilm Ziyo" - 2009. -192 b
4. Tursunov Q.M., Nuriddinova M.I. Boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiya asoslari(o'quv qo'llanma). Samarqand, 2003

